Zamonaviy va an'anaviy tarbiya uslublarining maktabgacha yoshdagi bolalarga psixologik ta'siri. O'zbekiston oilalarida qiyosiy tahlil	600
Tursunova Aziza Ixtiyorovna	
Tarbiyachi faoliyatida tarbiyalanuvchi shaxsni rivojlantirishning zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlari	603
Yusupova Vasilva Yangibayevna	
Профессиональная этика педагога высшего учебного заведения	606
Журабекова Хабиба Мадаминовна	
Boshqaruv kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va pedagogik texnologiyalar	609
O'rmonov Elmurod Mamasoliyevich	



Umumta'lim maktabi o'quvchilarining kreativ fikrlashini tarbiya darsligi vositasida rivojlantirish	612
<i>Abdisharipova Shaydo Bahtiyor qizi</i>	
The Effectiveness of Visual Teaching Methods in Developing Self-Directed Learning Competence Among Undergraduate Mehnat Muhofazasi va Texnika Xavfsizligi Students	615
<i>Abdullayeva Mukhlisakhon Akhrorjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashda xorij tajribasi	620
<i>Aliyeva Ravshanoy Zaripovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalari fanini o'qitishning tashkiliy shakllari va ta'lim vositalari	624
<i>Daniyarova Sarbinaz Maxsetovna</i>	
Nutq madaniyatini shakllantirishda kommunikativ yondashuvning nazariy asoslari	627
<i>Davlatova Nigora Berdimurot qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlikni tizimli boshqarishning ilmiy-pedagogik asoslari	631
<i>Fotima Uralovna Jumanova, Muxamatova Gulmira Erkinjon qizi</i>	
Yosh mutaxassislarda ijtimoiy muhitga moslashishda emotsional intellektning namoyon bo'lishi	635
<i>G'affarova Nazira Fayzulla qizi</i>	
Ko'p ma'noli so'zlarning badiiy matnda qo'llanilishi	639
<i>G'ulomova Zilola Rafiqjon qizi</i>	
Oilaviy munosabatlarda er-xotin bir-birini o'zaro tushunishining o'ziga xosligi va ahamiyati	642
<i>Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna</i>	
Gospital maktablar faoliyatini tashkil etishda Buyuk Britaniya, AQSh, Finlyandiya, Germaniya va Gretsiya tajribalardan foydalanish	646
<i>Isakulova N. J.</i>	
Interactive Approaches to Developing EFL Learners' Listening Skills	650
<i>Isayeva Umida</i>	
Global o'zgarishlar sharoitida yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolari	653
<i>Kudratova Lola Ravshanovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tezkor hisoblashga o'rgatishning samarali usullari	656
<i>Mamasaidova Muhabbat Abdusalom qizi, Akbaraliyeva Marjona Xurshid qizi</i>	
Integrativ yondashuv asosida bolalarga ingliz tilini o'rgatish	660
<i>Marasulova Dono Nigmatullayevna</i>	
Sun'iy intellekt asosidagi chatbotlardan foydalanib 10-sinfda fizika masalalarini o'rgatish metodikasi	665
<i>Matenova Go'zzal Djumabayevna</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilariga ona tilini o'qitish metodlarini takomillashtirish	671
<i>Muminova Munajat Yuldashevna</i>	
Bolalarning etnopsixologik xususiyatlarini rivojlantirishning psixologik shart-sharoitlari	675
<i>Norbekova Barno Shavkatovna</i>	
Qashqadaryo viloyati maktablarida yangi baholash tizimini joriy etishning ta'lim sifati ko'rsatkichlariga ta'siri	679
<i>Panjiyev Maqsud Aliqulovich</i>	
O'zbek tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini tanlash mezonlari	683
<i>Polvonova Shahnoza Faxriddinovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda yil fasllariga oid materiallarni innovatsion-integratsion yondashuvlar asosida o'rgatish metodikasini samaradorligini oshirish	686
<i>Rajabova Muxayyo Komilovna</i>	
Pedagogik jarayonda bilimlar integratsiyasi orqali tahlil qobiliyatini shakllantirish yo'llari	691
<i>Rustamova Latofat Istam qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda texnologiya fanini o'qitishda innovatsion yondashuvlar	694
<i>Rustamova Manzura Mirkamolovna, Zamira Talipova</i>	
Zamonaviy raqamli jamiyatda oilaviy qadriyatlar transformatsiyasi va uning yoshlar ongiga ta'siri	697
<i>Rasulova Dildora Shuhratovna</i>	

Insondagi hayotiy tanlov bilish psixologiyasining sohasi sifatida.....	703
S. S. Shukurullojeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish	708
Sharofova Feruza Qavmiddinbek qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda interaktiv metodlardan foydalanish.....	713
Xilola Ochilova Sheraliyevna	
Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda munosabatlar tizimini rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari.....	716
Xujaniyozova Oygul Rajabovna, Ibodullayeva Sharifaxon Oybek qizi	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarining kinematik va kinetik modellashtirish	721
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi	
O'smirlik davridagi inqiroz va uning muammolarining psixologik rivojlanish mexanizmlari	725
Xujaniyozova Oygul Rajabovna, Maksudbekova Shaxzoda Sherzod qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijodiy faoliyat asosida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning o'ziga xosligi	730
Yuldasheva Shoxida Botirovna, Menlimuratova Gulsanem	
Взаимосвязь защитных механизмов и психологической устойчивости подростков в условиях цифровой среды	734
Алимова Елена Геннадьевна	
Narrativ materiallar vositasida oilada o'smir yoshdagi bolalarda kitobxonlikni shakllantirish texnologiyalari.....	740
Yunusova Shahnoza Axror qizi	
Интеграция мультипликации в образовательную среду доо как средство всестороннего развития личности ребенка	745
Терехова Ольга Евгеньевна, Аллазарова Мадина Давронбековна	
Совершенствование речевой культуры студентов	749
Пардабоева Дильфуза Рустамовна	
Использование потенциала искусства в формировании эмоционального интеллекта и социальной компетентности дошкольников	752
Терехова Ольга Евгеньевна, Сайфидинова Мунира Бурхонидиновна	
Теоретические основы проектирования инновационных моделей формирования коммуникативной готовности к школе	756
Терехова Ольга Евгеньевна, Абдурауфова Хилолахон Шахобитдин кизи	
Теоретико-методологические основы формирования логического мышления старших дошкольников посредством интеграции традиционных и интерактивных игр	760
Терехова Ольга Евгеньевна, Рахимова Гулноз Эркиновна	
От репродукции к авторству: поэтапная система развития языковой креативности в старшем дошкольном возрасте	764
Терехова Ольга Евгеньевна, Каримова Регина Равильевна	
Опытно-экспериментальное исследование формирования нравственно-волевых качеств дошкольников в условиях доо средствами национальных игр	768
Терехова Ольга Евгеньевна, Хакимова Одина Шермухамматовна	

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA IJODIY FAOLIYAT ASOSIDA BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Yuldasheva Shoxida Botirovna

University of innovation technologies asisstent o'qituvchisi

Menlimuratova Gulsanem

University of innovation technologies 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijodiy faoliyat asosida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot jarayonida ijodiy faoliyatning turli shakllari, jumladan, tasviriy faoliyat, musiqiy-ritmik mashg'ulotlar, konstruktorlik ishlari, dramatizatsiya hamda erkin o'yinlar orqali bolalarda mustaqil fikrlash, tasavvur, tashabbuskorlik va muammoli vaziyatlarda ijodiy yechim topish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tajriba-sinov ishlari natijalari ijodiy faoliyatga tizimli va maqsadli yondashuv bolalarning ijodiy rivojlanish darajasini sezilarli darajada oshirishini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ijodiy faoliyat, ijodiy qobiliyat, metodika, o'yin texnologiyalari, tasviriy faoliyat.

Abstract: This article explores the methodology for developing creative abilities of preschool children through the systematic organization of creative activities in preschool education institutions. The study analyzes the pedagogical potential of various forms of creative activity, including visual arts, music and rhythmic activities, construction tasks, dramatization, and free play, in fostering independent thinking, imagination, initiative, and creative problem-solving skills in children. The results of the experimental research confirm that a structured and purposeful approach to creative activities has a positive impact on the creative development of preschool learners.

Key words: preschool education, creative activity, creative abilities, methodology, play-based learning.

Аннотация: В статье рассматривается методика развития творческих способностей детей дошкольного возраста на основе организации творческой деятельности в условиях дошкольных образовательных организаций. Анализируются педагогические возможности различных видов творческой деятельности, включая изобразительную, музыкально-ритмическую, конструкторскую деятельность, драматизацию и свободную игру, в формировании у детей самостоятельного мышления, воображения, инициативности и творческого подхода к решению проблемных ситуаций. Результаты опытно-экспериментальной работы подтверждают эффективность системного и целенаправленного использования творческой деятельности в развитии творческого потенциала дошкольников.

Ключевые слова: дошкольное образование, творческая деятельность, творческие способности, методика, игровые технологии.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va ta'lim tizimining modernizatsiyalashuvi sharoitida shaxsning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi pedagogika fanining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Jamiyatning innovatsion rivojlanishi, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash ehtiyoji bolalik davridan boshlab ijodiy fikrlashni shakllantirishni taqozo etadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim bosqichi bolalarda ijodkorlik, mustaqil tafakkur va tashabbuskorlikni rivojlantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi ^[1].

Mamlakatimizda maktabgacha ta'limni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ham ushbu yo'nalishning dolzarbligini tasdiqlaydi. Xususan, Prezidentimizning 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da sohani takomillashtirish bo'yicha asosiy ustuvor vazifalar belgilangan ^[2].



Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarning shakllanishi ularning bilish jarayonlari, tasavvur, emotsional sezgirlik va ijtimoiy tajribasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ilmiy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, aynan ijodiy faoliyat turlari - rasm chizish, konstruksiyalash, musiqiy-ritmik harakatlar, dramatisatsiya va syujetli-rolli o'yinlar bolalarda ijodiy tafakkurni faollashtiradi, o'zini erkin ifodalash va muammoli vaziyatlarda noodatiy yechim topish ko'nikmalarini rivojlantiradi ^[3].

Shu bilan birga, amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijodiy faoliyatdan foydalanish imkoniyatlari yetarli bo'lsa-da, ularning pedagogik imkoniyatlari har doim ham tizimli va maqsadga yo'naltirilgan holda amalga oshirilmayapti. Bu esa bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini ilmiy asoslangan yondashuv asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi ^[4].

Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijodiy faoliyat asosida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, mazkur jarayonning pedagogik shart-sharoitlarini belgilash hamda samarali usul va shakllarini asoslash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning maqsadi - bolalarning tabiiy qiziqishi, tasavvuri va mustaqil fikrlashini qo'llab-quvvatlash orqali ularning har tomonlama (aqliy, hissiy, ijtimoiy va estetik) rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinayotgan dolzarb muammolardan biridir. Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida ijodiy faoliyatning shaxs rivojiga ta'siri xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng yoritilgan.

Xorijiy tadqiqotlarda bolalar ijodkorligi asosan tasavvur va ijodiy tafakkur bilan bog'liq holda talqin etiladi. Jumladan, L.S. Vygotskiy bolalar ijodkorligini ularning ijtimoiy tajribasi va tasavvur faoliyati bilan uzviy bog'liq jarayon sifatida izohlaydi. Olimning fikricha, ijod - bu faqat yangi mahsulot yaratish emas, balki bolaning mavjud tajribasini qayta ishlash va yangicha uyg'unlashtirish jarayonidir ^[5]. Ushbu yondashuv maktabgacha ta'limda ijodiy faoliyatni tashkil etishda bolaning erkinligi va tashabbusini ta'minlash zarurligini asoslaydi.

J. Guilford va E. Torrance kabi tadqiqotchilar ijodiy qobiliyatlarni divergent tafakkur bilan bog'lab, uning asosiy ko'rsatkichlari sifatida moslashuvchanlik, originallik va fikrlar xilma-xilligini ko'rsatib o'tadilar ^[6]. Torrance tomonidan ishlab chiqilgan testlar bolalarda ijodiy qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirish masalasida muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda ijodiy faoliyat bolaning intellektual rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida e'tirof etiladi.

Shuningdek, M. Montessori pedagogikasida ijodiy faoliyat maxsus tayyorlangan muhit orqali bolalarning mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida talqin etiladi. Montessori metodikasida bola o'z qiziqishi va ichki ehtiyojlari asosida faoliyat yuritishi natijasida ijodiy qobiliyatlari tabiiy ravishda rivojlanadi ^[7].

Mahalliy olimlarimiz tadqiqotlarida ham maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalasi keng yoritilgan. M.G. Davletshin bolalar ijodkorligini shaxs rivojining muhim komponenti sifatida ko'rib, uni emotsional-barqarorlik, tasavvur va bilish jarayonlari bilan bog'liq holda tahlil etadi ^[8]. Olimning ta'kidlanishicha, ijodiy faoliyat bolaning nutqi, muloqot madaniyati va mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

N.M. Qodirova, Sh.A. Abdullaeva va boshqa mahalliy tadqiqotchilar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy va o'yin faoliyati orqali bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratganlar ^[9]. Ularning ishlarida ijodiy faoliyat ko'proq alohida mashg'ulotlar doirasida yoritilgan bo'lib, pedagogik shart-sharoitlar va tarbiyachining ijodiy jarayondagi roli asoslab berilgan.

Adabiyotlar tahliliga qaraydigan bo'lsak, mavjud tadqiqotlarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning nazariy asoslari, ayrim faoliyat turlarining ahamiyati yetarlicha yoritilgan. Biroq ushbu ishlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijodiy faoliyatni yaxlit pedagogik tizim sifatida tashkil etish, uning o'ziga xos xususiyatlari va kompleks yondashuv asosida samaradorligini aniqlash masalalari yetarli darajada chuqur tahlil qilinmagan. Shuning uchun bu maqola ilmiy manbalardan farqli o'laroq ijodiy faoliyat asosida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni tizimli, shaxsga yo'naltirilgan va amaliy-pedagogik yondashuv asosida ochib berishga, amaliyotda qo'llaniladigan ijodiy faoliyatlarni samaradorligini oshirishga qaratilgan.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Yuqoridagi manbalarni tahlil qilishda qiyosiy taqqoslash usuli qo'llanilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini ijodiy faoliyat asosida rivojlantirish jarayonini yaxlit pedagogik tizim sifatida o'rganishga yo'naltirildi. O'rganish davomida MTTlarda olib boriladigan kundalik mashg'ulotlar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, faoliyatga asoslangan va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida olib borilib, unda bolaning individual imkoniyatlari, qiziqishlari va yosh xususiyatlari asosiy mezon sifatida belgilandi. Metodologik yondashuv bolalarning ijodiy faolligini rag'batlantirish, mustaqil fikrlash va erkin ijod qilishga sharoit yaratishga qaratildi.



Ushbu metod orqali bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan turli ilmiy-nazariy yondashuvlar, pedagogik qarashlar hamda amaliy tajribalar o'zaro solishtirilib tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil jarayonida xorijiy va mahalliy olimlarning maktabgacha yoshdagi bolalar ijodkorligiga oid tadqiqotlari, ularning mazmuni va metodik yo'nalishlari amaldagi maktabgacha ta'lim jarayoni bilan taqqoslab o'rganildi.

Tadqiqot davomida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llanilayotgan an'anaviy mashg'ulotlar bilan ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan mashg'ulotlar o'rtasidagi farqlar aniqlanib, ularning bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi samaradorligi qiyoslandi. Taqqoslash mezonlari sifatida bolalarning mustaqil fikrlashi, tasavvur darajasi, ijodiy faolligi, tashabbuskorligi va emotsional holati olindi. Ushbu mezonlar asosida ijodiy faoliyatni ustuvor qo'llagan mashg'ulotlarning bolalar rivojiga ta'siri ilmiy jihatdan baholandi. Shuningdek, qiyosiy tahlil yordamida ijodiy faoliyatning turli shakllari - tasviriy faoliyat, konstruksiyalash, musiqiy va dramatik faoliyat hamda ijodiy o'yinlar - o'zaro solishtirilib, ularning maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi o'rni va imkoniyatlari aniqlashtirildi.

Tadqiqot jarayonida normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni^[10] hamda Davlat maktabgacha ta'lim standarti talablari amaliyot bilan qiyoslab tahlil qilindi. Bu orqali ijodiy faoliyatni tashkil etishda belgilangan me'yoriy talablar va real pedagogik jarayon o'rtasidagi uyg'unlik darajasi aniqlab berildi. Qiyosiy tahlil natijalari asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijodiy faoliyat asosida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning o'ziga xos pedagogik xususiyatlari aniqlanib, mazkur jarayonni samarali tashkil etishga doir ilmiy xulosalar chiqarildi hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida olib borilgan qiyosiy tahlil natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijodiy faoliyat asosida tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda an'anaviy mashg'ulotlarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Xususan, an'anaviy, ko'proq reproduktiv xarakterga ega mashg'ulotlarda bolalarning faol ishtiroki cheklangan bo'lib, ular asosan tarbiyachi ko'rsatmalarini bajarishga yo'naltirilganligi kuzatildi. Bunday jarayonda bolalarning mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi va ijodiy yondashuvi yetarli darajada namoyon bo'lmadi.

Ijodiy faoliyatga asoslangan mashg'ulotlarda esa bolalarning faol ishtiroki, mustaqil tanlov qilish imkoniyati va o'z fikrini erkin ifodalashi yaqqol kuzatildi. Qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, rasm chizish, konstruksiyalash, dramatizatsiya va ijodiy o'yinlar orqali tashkil etilgan mashg'ulotlarda bolalarning tasavvuri kengaygani, yangi obrazlar yaratishga intilishi va noodatiy yechimlar taklif etish ko'nikmalari rivojlangani aniqlandi. Bunda jarayonning o'zi bolalar uchun qiziqarli va emotsional jihatdan ijobiy kechishi ularning ijodiy faolligini yanada oshirdi.

Ijodiy faoliyat turi	Faoliyat mazmuni	Rivojlanadigan ijodiy qobiliyatlar	Pedagogik natija
Tasviriy faoliyat (rasm chizish, bo'yash)	Ranglar, shakllar va obrazlar yaratish	Tasavvur, estetik did, obrazli tafakkur	Bola o'z fikrini erkin ifodalaydi
Konstruksiyalash (kubik, lego, qurish)	Buyum va inshootlarni mustaqil qurish	Mantiqiy fikrlash, ijodiy yechim topish	Muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topadi
Musiqiy faoliyat (qo'shiq, ritmik harakatlar)	Musiqqa orqali his-tuyg'ularni ifodalash	Emotsional sezgirlik, ritm va eshitish qobiliyati	O'z his-tuyg'ularini erkin namoyon etadi
Dramatik faoliyat (rolli o'yin, sahnalashtirish)	Obrazga kirish va voqealarni jonlantirish	Nutq faolligi, empatiya, ijodiy tafakkur	Muloqot va ijtimoiy ko'nikmalar rivojlanadi
Ijodiy o'yinlar	Syujet asosida erkin o'yin tashkil etish	Mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, moslashuvchanlik	Ijodkorlik va ijtimoiy faollik oshadi

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ijodiy faoliyat turlarining ta'sir darajasi ham bir xil emas. Masalan, tasviriy va konstruktiv faoliyat bolalarda obrazli tafakkur va mayda motorika rivojiga ko'proq ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, musiqiy va dramatik faoliyat emotsional sezgirlik, nutq faolligi hamda ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarining rivojlanishiga xizmat qilgan. Ijodiy o'yinlar esa bolalarning tashabbuskorligi, hamkorlikda ishlash va muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiruvchi samarali vosita sifatida namoyon bo'ldi.

Qiyosiy tahlil asosida olingan natijalar shuni tasdiqladiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijodiy faoliyatni yaxlit pedagogik tizim sifatida tashkil etish bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tarbiyachining yo'naltiruvchi va hamkorlikka asoslangan pozitsiyasi, bolalarning erkin tanlovi va ijobiy psixologik muhit ijodiy rivojlanishning asosiy shartlari sifatida namoyon bo'ldi. Tadqiqot natijalari ijodiy faoliyat asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash va tashabbuskorlikni shakllantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijodiy faoliyat asosida tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Qiyosiy tahlil asosida aniqlanishicha, an'anaviy, ko'proq reproduktiv xarakterdagi mashg'ulotlarga nisbatan ijodiy faoliyatga yo'naltirilgan mashg'ulotlar bolalarda mustaqil fikrlash, tasavvur, tashabbuskorlik va ijodiy faollikni samarali rivojlantiradi.

Tadqiqot jarayonida ijodiy faoliyatning turli shakllari - tasviriy, konstruktiv, musiqiy, dramatik faoliyat hamda ijodiy o'yinlar - bolalarning ijodiy qobiliyatlariga turlicha, ammo o'zaro to'ldiruvchi ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Ushbu faoliyatlar orqali bolalarda obrazli tafakkur, emotsional sezgirlik, nutq faolligi va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalari rivojlanishi kuzatildi. Ayniqsa, ijodiy o'yinlar va dramatik faoliyat bolalarning erkin fikrlashi va o'zini namoyon etishida samarali vosita ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni hamda Davlat maktabgacha ta'lim standarti talablari bilan amaliy jarayonni qiyosiy tahlil qilish natijasida ijodiy faoliyatni tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar mavjudligi, biroq ularni amaliyotga tatbiq etishda tizimlilik va maqsadga yo'naltirilganlikni kuchaytirish zarurligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijodiy faoliyatni yaxlit pedagogik tizim sifatida tashkil etish bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali yo'li hisoblanadi. Ushbu jarayonda tarbiyachining yo'naltiruvchi va hamkorlikka asoslangan faoliyati, bolalar uchun ijobiy psixologik muhit yaratish hamda ularning individual imkoniyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim amaliyotida ijodiy faoliyatdan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi qarori, 08.05.2019 yildagi PQ-4312-son
2. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. - М.: Педагогика, 1991. Davletshin M.G. Yosh va pedagogik psixologiya. - Toshkent: O'qituvchi, 2018.
3. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni. - Toshkent, 2019
4. Torrance E.P. Creativity in the Classroom. - Washington: American Psychological Association, 2003.
5. Montessori M. The Absorbent Mind. - New York: Holt, Rinehart and Winston, 1995.
6. Davletshin M.G. Yosh va pedagogik psixologiya. - Toshkent: O'qituvchi, 2018.
7. Qodirova N.M. Maktabgacha pedagogika. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
8. O'zbekiston Respublikasi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 2019

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.